

O‘ZBEKISTONDA BIZNES VA TADBIRKORLIKNING TARIXIY NEGIZLARI VA EVOLYUTSIYASI

Mavlonova Dilfuza Raxmatilla qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

dilfuza111095@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0008-4891-2003>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Maqolada O‘rta Osiyo xalqlari, jumladan o‘zbek xalqi qadimgi xo‘jalik hayoti, xususiy mulkchilik, ayniqsa tadbirkorlikning rivojlanishi, uning qadimiy turlari tarixi manbalar va turli statistik ma’lumotlari asosida bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: mulkiy tabaqalanish mulkka egalik qilish, xususiy mulkchilik, jamoa a‘zolari, hunarmandchilik, hunarmandchilik, dehqonchilik, uy hunarmandchiligi.

Аннотация: В статье на основе исторических источников и различных статистических данных описывается древняя экономическая жизнь народов Центральной Азии, включая узбекский народ, развитие частной собственности, особенно предпринимательства, его древние формы.

Ключевые слова: стратификация собственности, имущественная собственность, частная собственность, члены общины, ремесла, ремесла, сельское хозяйство, домашние ремесла

Abstract: The article describes the ancient economic life of the peoples of Central Asia, including the Uzbek people, the development of private property, especially entrepreneurship, its ancient forms, based on historical sources and various statistical data.

Keywords: property stratification, property ownership, private property, community members, handicrafts, crafts, farming, home crafts

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tarixdan ayonki, eng qadimgi davrlarda mulk dastlab ma’lum bir jamoaga tegishli bo‘lib, u jamoa a‘zolari orasida teng taqsimlangan. YA’ni, ibtidoiy davrning matriarxat bosqichida mulk ijtimoiy xarakter kasb etib, bunday jamoalarning iqtisodiy asosini o‘zlashtiruvchi xo‘jalik tashkil etgan. Ibtidoiy ajdodlarimiz tomonidan chorvachilik, dehqonchilik hamda hunarmandchilik

rivojlangach, xususiy mulkchilik shakllana boshlagan.

МУНOKАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bronza davrida yuz bergan birinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti (dehqonchilik va chorvachilik xo‘jaliklarining ixtisoslashuvi) va undan keyin davr, ilk temir davrida ikkinchi ijtimoiy mehnat taqsimoti (hunarmandchilikning dehqonchilikdan ajrab chiqishi) natijasida xususiy mulk rivojlana boshladi[1;78].

Agar O‘zbekiston hududlarida qadimda ilk tadbirkorlik ildizlarining shakllanishiga e’tibor qaratilsa, xususiy mulk va uning ta’siri katta bo‘lganligini o‘troqlik turmush tarzi ustun bo‘lgan dehqonchilikda ko‘proq kuzatish mumkin. YA’ni, dehqonchilikda xususiy mulkka egalik qilish soha taraqqiyotini tubdan o‘zgarishiga olib keldi. O‘lkamizda o‘sha davrga oid ilk xususiy mulkchilik asoslarining shakllanish tarixi tahlili shuni ko‘rsatdiki, qadimgi dehqonchilik madaniyati mintaqalarining chegarasi O‘rta Osiyoning shimoliy-sharqiy mintaqalari tomon kengaya boshlaganligini, janubiy O‘zbekistonda sun’iy sug‘orma dehqonchilik va yuksak darajada rivoj topgan hunarmandchilik xo‘jaligining bronza davriga oid Sopolli madaniyati shakllana boshlagan[2]

Bu jamiyat taraqqiyotida yuz bergan tub ijtimoiy — iqtisodiy o‘zgarishlar, jumladan tadbirkorlikka, xususiy mulkka va uni taqsimlashga bo‘lgan munosabatning o‘zgarishiga olib kelib, natijada boy tabaqa vakillari o‘zlarining yirik xususiy mulklariga ega bo‘lganligini tasdiqladi[3;30]. Шу тариқа хусусий мулкнинг келиб чиқиши ва тadbirkorlikning ilk кўринишлари туфайли ўз навбатида минтақада мулккий табакаланish шакллана бoшлади.

Mulkiy tabaqalanish sodir bo‘lganligi “Avesto” va unga oid ilmiy tadqiqotlarda ham uchraydi. “Avesto” da qayd qilinishicha, «Inson uy, yem-xashak ko‘p bo‘lib, chorvasi va itlari to‘q yashasa,

uyida noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotin va farzandlari farovon yashasa, o'sha manzil muhtaramdir»[4;134].

A. Asqarov tarixning ilk yer egaligi davridagi xususiy mulkka asoslangan tadbirkorlikning dastlabki asoslari xususida, "Turonzamin hududlarida ilk o'rta asrlarda ilk yer egaligining shakllanishi jamiyatda turli toifadagi fuqarolarning yer va mulkka bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishiga olib keldi. Natijada ilk o'rta asrlar davrida erkin dehqon jamoa a'zolaridan mahalliy xususiy mulk egalari – "qishloq dehqonzodalari" shakllana boshlaydi, keyinchalik ular negizida qishloq hokimlari vujudga kela boshlagan. Yerga, ishlab chiqarish vositalariga egalik qilish uzil-kesil xususiylashadi, mulkchilikda xususiy mulk va erkin jamoa mulki tarkib topadi», deya qayd etadi[2].

VII asr oxiri – VIII asr boshlariga kelib, Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligi o'rnatilgach, ilgari dehqonzodalar tasarrufidagi qishloq jamoalarining xususiy mulklari ham arab hukmdorlari va noiblari qo'liga o'tadi. Mahalliy hukmdorlar faqatgina ayrim soliq turlarni to'lash orqali avvalgi hukmdorliklarini davom ettirayotgan edilar. Arab xalifaligi davrida xususiy va jamoa mulkidan tashqari "vaqf" mulklari ham mavjud bo'lgan. Bunday mulklar davlat hukmdorlari tomonidan joriy qilingan bo'lib, ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjidlar, madrasalar ixtiyoriga daromaddan foydalanib turish, ammo sotmaslik sharti bilan o'tkazilgan yoki vasiyat qilib qoldirilgan davlatga qarashli yoki xususiy mulk, ya'ni yer-suv, mol- mulk, bino va boshqalar hisoblangan. Vaqfdan kelgan daromadlar o'sha diniy muassasalar faoliyatini yaxshilash va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga berilgan[4].

XII — XIII asrlarda va undan so'ng faqat hukmron sulola vakillari, yirik harbiy arboblarning iqto egalari (iqtidor) hisoblanganlar. Bunday yer va mulklar o'sha zamindorlarga hukmdorlar tomonidan xususiy qilib berilib, iqto sohibi, garchand asosiy soliqlardan ozod bo'lsada, xiroj va ayrim soliqlarni yig'ish huquqiga ega bo'lgan. Somoniylar, Qoraxonilar, G'aznaviylar va Mo'g'ullar davrida iqto miqdori in'om etilayotgan shaxsning jamiyatda tutgan ijtimoiy-siyosiy mavqeyi bilan bog'liq bo'lgan. Iqto xirojning ma'lum qismini markaziy davlatning xazinasiga

topshirib turish va harbiy xizmat ko'rsatish sharti bilan ham berilgan[5;34]⁷⁷.

Amir Temur va temuriylar davrida xususiy mulk egalari qo'llab- quvvatlanganligi va ularga e'tibor berilganligi e'tiborga molikdir. Zero, hukmdor u orqali har bir inson rohat va farog'atga erishish mumkinligini chuqur idrok etgan va uning tamoyillari mashhur "Temur tuzuklari" da ma'lum tizimga solinganligini ko'rish mumkin. Tuzuklarga ko'ra, "Azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz va loqayd kishidan afzaldir". Sohibqiron Amir Temurning ushbu gapi zamirida tadbirkor va ishbilarmon kishilar mamlakatning tayanchi, jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlashda asosiy kuchlardan biri bo'lganligini ko'rish mumkin. Yoki tuzuklarda "Amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'kartirsa, yoxud biron xarob bo'lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili ulardan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa Qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'sinlar"[6;141], — degan fikrni ilgari surganligi o'z davrida mol- mulk egalari ma'lum imtiyozlar berganligidan dalolatdir.

XVI – XVIII asrlarda shayboniylar, ashtarxoniylar hukmronligi davriga kelib, tadbirkorlikning ilk shakllari yanada rivoj topgan. Xususan, bu davrda Marg'ilon va Samarqandda zamonaviy ko'rinishdagi tadbirkorlik korxonalarining ilk ko'rinishlari shakllana boshlagan. Qo'qon va Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish, Namanganda metallsozlik, Buxoroda cho'yan buyumlar tayyorlash tobora o'sib bordi. Masalan, Qo'qonda Mallaxon davrida (1858-1862 yy.) ilk zambarak tayyorlovchi xususiy korxonaga asos solinganligi fikrimiz dalilidir[7;181].

So'nggi o'rta asrlarda bugungi kundagi kasanachilikning dastlabki ko'rinishlari sifatida uy hunarmandchiligida ilk sex uyushmalarining dastlabki shakllari paydo bo'la boshlagan. Bu birinchi navbatda, hunarmandlarning ma'lum sohaga ixtisoslashuvini anglatgan. Sex tizimiga ko'ra uning nizomi-"Risola" lar mavjud bo'lgan. "Risola"larda o'sha uyushmani yuritishning tartib-taomillari, qoidalari va uning huquqiy rasmiylashtirish normalari aks etgan[8].

Shaharlarda tadbirkorlikning ushbu shakli, ya'ni uy hunarmandchiligi rivoj topganligi bois, aholi shahar mahallalarida o'z kasb-koriga qarab

joylashganlar. YA'ni, har bir yirik shaharlardagi mahallalar tadbirkorlar ishlab chiqarayotgan mahsulotlar turi, ya'ni aholining kasb-koriga qarab nomlangan. Masalan, so'nggi o'rta asrlarda Buxoro, Toshkent, Termiz, Xo'jand, Nurota, Qo'qon shaharlarida Taqachi, Degrezlar, So'zangaron, Kosagaron, Sovungaron, Bo'yrafofon, Po'stindo'zon, Murdasha'yon, Pistashikanon, G'assollar mahallalari bo'lgan[8].

Turkistonda zamonaviy tadbirkorlik asoslari XIX asr oxiri — XX asr boshlarida shakllana boshlagan. Bunga Rossiyadan rus kapitali va sarmoyalarining kirib kelishi, dastlabki kichik korxonalar va fabrikalarning vujudga kelishi, ilk moliya muassasalari va banklarning faoliyati, o'lkada milliy burjuaziyaning shakllanishi, asosiy ishlab chiqarish manbalarining sarmoyadorlar qo'liga o'tishi kabi omillar sabab bo'lgan. Zero, bunday korxonalar asosan yirik tadbirkorlar qo'lida to'planib, ular asosan paxta, jun, ipak va terini qayta ishlash bilan shug'ullanib, mahsulotning asosiy qismi Rossiyaga jo'natilganligi tarixdan ayon.

XX asr 20-yillariga kelib sovet tuzumi tartib taomillariga ko'ra, hukumat oldida turgan eng muhim masalalardan biri, xususiy mulkni musodara qilish, yer-suv masalasini hal qilish edi. Bu borada Q. Rajabovning yozishicha, masalan, 1920 yil 30 sentyabrda Buxoro Markaziy Revkomi «Yer to'g'risida» gi dekretni qabul qilganligi bunga misoldir. Dekretga muvofiq sobiq Buxoro amiri, uning qarindoshlari va amaldorlari qo'lida to'plangan xususiy yer, mol-mulk musodara qilina boshlandi. Bu davrda amirga tegishli boshqa xususiy mol-mulklar ham tashib ketilganligi haqida ma'lumotlar mavjud[6].

XX asr birinchi choragida dastlab Rossiya imperiyasi, so'ngra bolsheviklar hukumatining olib borgan ijtimoiy- iqtisodiy tadbirlari hamda mazkur tuzumning dastlabki yillaridan boshlab davlatning xususiy mulkdor va tadbirkorlarga nisbatan olib borgan siyosati Turkiston xalqlari milliy boyluklarini metropoliya manfaatlari uchun foydalanishning muhim vositalaridan biriga aylandi. Mol-mulkni musodara qilish va ularga oid munosabatlarni yangi sharoitlarga moslashtirish, davlat ahamiyatidagi tadbirlardan biri bo'lib qoldi hamda u o'zining iqtisodiy va moliyaviy oqibatlarini ko'rsata boshladi.

Yangi iqtisodiy siyosat davrida korxonalarning aralash-xususiy sektori negizida ularni ijaraga berilishi uchun imkon yaratildi. Ana shunday shirkatlar qatorida 1922 yil oxirlariga kelib o'lkada “Turkiston”, “Tijorat”, “Eksport-import”, “Uch bosh”, “Vositachi”, “Karvon” va boshqalarni keltirish mumkin. O'sha davrda birgina Farg'ona viloyatining o'zida 24 ta savdo va ijara shirkatlari mavjud bo'lgan[6]. Ammo sovet davlati mol-mulkka va sanoat ishlab chiqarishiga nisbatan xususiy tashabbusni cheklashga intilsa-da, o'lkada kooperatsiyalar faoliyati hamon faoliyat yuritib, ular umumiy tadbirkorlarning salkam 30 % ni tashkil qilgan bo'lib, 1921 yilda TASSR da 86 ta korxona yakka tadbirkorlarga ijara berilgan [7].

Umuman, Yangi iqtisodiy siyosat(NEP)ning ijobiy tomoni shu bo'ldiki, davlatning xususiy mulk egalari va xo'jaliklar bilan munosabatlari bir oz yumshatildi. Ammo mavjud iqtisodiy omillar hamda davlatning soliq siyosati o'lkadagi aholining ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda belgilanib, soliqlarni undirishda sinfiy yondashuvga amal qilinishi saqlab qolindi.

XX asr 30-40 yillarida sobiq Ittifoqda xususiy tadbirkorlik butunlay cheklandi, ishlab chiqarish vositalariga deyarli to'liq davlat mulki o'rnatildi. Davlat tomonidan rejalashtirish asosida mahsulotni ishlab chiqarishda va taqsimlashda to'liq nazorat ostiga olinishi iqtisodiy siyosatda zo'ravonlik tomon yo'l olishga, iqtisodiy omillar o'rni ma'muriy choralar keng qo'llanishga imkon berdi. Ishlab chiqarish rivojlanishidagi davlat mulki, kolxoz kooperativ mulkchiligi va asosan xom ashyoni dastlabki qayta ishlab chiqaruvchi davlatga qarashli bo'lgan sanoat va yengil sanoat korxonalari saqlab qolindi.

Demak, XX asr 30 yillarida o'lkada boshlangan ommaviy jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risidagi hukumat qarorlari va unga doir amalga oshirilgan davlat siyosati, bevosita xususiy mulk va yerning haqiqiy egasi bo'lgan boy zamindorlar va katta yer egalarining mol mulkini musodara qilish, davlat tasarrufiga o'tkazish va davlat siyosatiga qarshi chiqqanlar esa ma'muriy jazoga tortilishi, surgun qilinishi kabilarda yaqqol namoyon bo'lgan edi. “Quloq” larga qarshi niqobi ostida asosan tadbirkor, ishbiarmon dehqonlarga nisbatan tazyiq e'lon qilindi, mol mulk xo'jayini, yer egasi bo'lgani uchun, markaz ma'muriyatining

xatti-harakatiga norozilik bildirgani uchun quloq qilish tobora kuchaytirildi.

XX asr 50-60 yillaridan boshlab sobiq Ittifoqning boshqa respublikalarida bo'lgani kabi, O'zbekiston xalq xo'jaligini rivojlantirish to'la davlat monopoliyasiga asoslangan boshqaruv tizimiga o'tkazildi. Sovet Ittifoqi Kompartiyasining 1961 yildagi kommunistik tuzum qurishga oid Maxsus Programmasiga muvofiq, mamlakatda tadbirkorlik va biznes faoliyati butunlay to'xtatildi, keyinchalik ular faqat statistik ma'lumotlarda aks eta boshladi.

XX asr 80-yillari oxirlarida butun mamlakatda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham xususiy mulk va kichik biznes sekin-asta qayta jonlana boshladi. Sobiq ittifoq tugatilgandan so'ng, mustaqillikni qo'lga kiritgan ko'pgina mamlakatlar bu sohadagi o'z Qonunlarini qabul qildilar.

XX asr 90 yillari boshida esa O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan o'tkazilgan iqtisodiy islohotlar natijasida kichik

biznes va tadbirkorlikka keng imkoniyatlar ochildi, xususiy biznes yo'lga qo'yila boshlandi. Dastlab savdo, umumiy ovqatlanish, aholiga xizmat ko'rsatish korxonalarining xususiylashtirilishi munosabati bilan xususiy tadbirkorlik qaytadan tiklana boshladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida ishtirok etishi, ularning eksport salohiyatini oshirish, mintqa va jahon bozorlariga chiqishini kengaytirish muammosini hal etishga jiddiy ahamiyat qaratila boshlandi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlangan xususiy mulkchilik hamda tadbirkorlikning dastlabki ildizlari insoniyat tarixining anchagina qadimgi davrlariga borib taqaladi. Uning shakli va mazmuni har bir tarixiy davrda o'zgarganligi va rivojlanganligi bilan izohlandi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Т.: Ўзбекистон. 2015. – Б. 78.
2. Асқаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Т.: Фан. 1977.
3. Усмонов Қ, Содиқов М ва бошқалар. Ўзбекистон тарихи. (Олий ўқув юртлари барча бакалавр босқичи талабалари учун дарслик). – Т.: Иқтисод-молия, 2005. – Б. 30.
4. Толипов Ф.С. Оила-жамоа муносабатлари: Авесто фалсафасининг ўзига хослиги // Фалсафа ва тарих фанлари ўртасидаги диалектик алоқадорликнинг илмий-назарий асослари. Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Т.: 2004. – Б. 134.
5. Обломуродов Н, Толипов Ф. Ўзбекистонда солиқлар тарихи. – Т.: Iqtisod-moliya. 2009. – Б. 34.
6. Амир Темур. Темур тузуклари. – Т.: Ilm-Ziyo-Zakovat, – Б. 141.
7. Раззоков А. Иқтисодий тафаккур сарчашмалари. – Т.: O'zbekiston. 2011. – Б. 181.
8. Qanoatova F. O'zbekistonda ayollar oilaviy tadbirkorlik faoliyatining shakllanishi. // Sohibqiron yulduzi 2022 yil, 4 son (50). – Б. 332 -338.